

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

IZIMBETOV KADIR SAPARBAEVICH

**QORAQALPOG‘ISTONDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch– 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Izimbetov Kadir Saparbaevich

Qoraqalpog‘istonda aholi demografik jarayonlarini ekonometrik modellashtirish... 5

Изимбетов Кадир Сапарбаевич

Эконометрическое моделирование демографических процессов населения в
Каракалпакстане..... 29

Izimbetov Kadir Saparbaevich

Econometric modeling of demographic processes in Karakalpakstan..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 59

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

IZIMBETOV KADIR SAPARBAEVICH

**QORAQALPOG‘ISTONDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch– 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2929 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sauxanov Janibek Kazievich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdug'aniyev Otabek Allajonovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayev Quvvat Iskandarovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.06.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" _____ soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil "_____" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I.S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mamlakatlar demografik rivojlanishining oʻrni katta boʻlib, ijtimoiy manfaatlarga yoʻnaltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning oʻsishi, joylashishi, demografik tarkibi, demografik jarayonlarni modellashtirish kabi jihatlarini tadqiq etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. “2050-yilga borib dunyo aholisi 2 milliard kishiga, yaʼni 7,7 milliarddan 9,7 milliardga koʻpayishi kutilmoqda va asr oxiriga kelib, global aholi sonining oʻsishi davom etayotganiga qaramay, u eng yuqori choʻqqisiga koʻra qariyb 11 milliardga yetadi. Ushbu davrda butun dunyo boʻylab tobora koʻproq odamlar yashash joyi sifatida shaharlarni tanlashlari taxmin qilinmoqda va 5 yoshgacha boʻlgan bolalar soni 65 va undan katta yoshdagilar sonidan kamroq boʻladi”¹. Shu jihatdan ham bugungi kunda aholi demografik jarayonlarini ekonometrik modellashtirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda globallashtirish va demografik jarayonlarning jadallashishi sharoitida aholi soni, uning oʻsishi, joylashishi, demografik tarkibini tadqiq qilish, demografik jarayonlarning mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati va ularning statistik manbaini aniqlash, demografik jarayonlarni statistik tadqiq etish yoʻnalishlari va koʻrsatkichlarini tizimlashtirish, demografiya sohasida davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash, mintaqalarni demografik rivojlanishining axborot bazasini shakllantirish, demografik jarayonlarni imitasion modellashtirish, demografik holat parametrlariga alohida omillarning taʼsirini baholash, demografik jarayonlarni prognozlashtirish kabilar ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda Qoraqalpogʻiston Respublikasida demografik jarayonlarning mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga taʼsirini aniqlash hamda demografik holat parametrlariga alohida omillarning taʼsirini baholash borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Aholining oʻrtacha umr koʻrish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, katta yoshdagi (40 yosh va undan yuqori) aholi orasida jismoniy faol aholi ulushini 2 barobar oshirish”² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda aholi soni, uning oʻsishi, joylashishi, demografik tarkibini tadqiq qilish, demografiya sohasida davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash, demografik jarayonlarni imitasion modellashtirish, demografik jarayonlarni prognozlashtirish kabi yoʻnalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son ““Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida” va 2021 yil 30 sentyabrdagi PF-6318-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son “2025 yilda aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Qarori Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-maydagi “Mehnat migrasiyasi jarayonlarini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi

¹ <https://www.un.org/ru/un75/shifting-demographics>

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli Farmoni.

313-son Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Demografik jarayonlar, demografik holat parametrlariga alohida omillarning ta'sirini baholash, demografik jarayonlarni prognozlashtirish masalalarining ilmiy asoslari xorijlik olimlar³, jumladan, A.I.Antonov, V.N.Arhangelskiy, Ye.N.Vanchikova, S.V.Darmodexin, I.Djeyms, F.Engels, K.A.Shestakov, Ye.Yu.Fayerman, L.Dudley, Jr.Poston, G.Kaselli, J.Vallin, G.Vunsh va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu muammolarni o'rganishga O'zbekistonlik olimlardan⁴ R.A.Ubaydullayeva, Q.X.Abduraxmanov, O.B.Ota-Mirzayev, N.Umarova, Z.T.Abdalova, Z.N.Tojiyeva, M.R.Bo'riyeva, S.S.Zokirov, X.X.Abduramanov, E.Axmedov, F.Zairova va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida mintaqada aholi demografik jarayonlarini ekonometrik modellashtirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlashtirishning ayrim jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, mintaqada aholi demografik jarayonlarini ekonometrik modellashtirish kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda demografik jarayonlarni modellashtirish va demografik holat parametrlariga alohida omillarning ta'sirini baholash tizimini takomillashtirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

³ Архангельский, В.Н. Практическая демография [Текст]: учебник / В.Н. Архангельский; под ред. Л.Л. Рыбаковского. - М.: Центр соц. прогнозирования: НИК ВРШТИИ, 2005. - 277 с.; Антонов А.И. Демография в эру депопуляции [Текст] / А.И. Антонов // Демографические исследования: сборник / отв. ред. А.И. Антонов. - М.: КДУ, 2009; Ванчикова, Е.Н. Методология статистического исследования благосостояния населения республики Бурятия [Текст]: автореф. дис. ... д-ра экон. наук / Е.Н. Ванчикова. - М., 2005. - 51 с.; Дармодехин С.В. Государственная семейная политика: методология, теория, практика [Текст] / С.В. Дармодехин // Семья в России. - 2006. - № 2; Джеймс И. Хьюз-мл. Богатство семьи: как сохранить в семье человеческий, интеллектуальный и финансовый капиталы [Текст] / И. Хьюз-мл. Джеймс; пер. с англ. У. Сапциной. - М.: Олимп-Бизнес, 2012; Энгельс Ф. Происхождение семьи, частной собственности и государства [Текст] / Ф. Энгельс; пер. с нем. - СПб.: Лениздат, 2014; Шестаков К.А. Когда станут рожать не меньше троих [Текст] / К.А. Шестаков // Развитие и экономика. - М., 2013. - Дек.; Фаерман, Е. Ю. и др. Демо-социо-экономическая структура населения и семейных доходов: методы анализа и прогнозирования [Текст] / Е.Ю.Фаерман и др. - М.: ЦЭМИ РАН, 2005. - 88, [4] с.; Dudley L, Poston Jr. Demography. - Cambridge University Press, 2010. 442 p.; Demography: Analysis and Synthesis; A Treatise in Population Studies / ed. by G. Caselli, J. Vallin, G. Wunsh. Vol. 1. N.Y. and L.: Academic Press, 2006.

⁴ Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B., Umarova N. Uzbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. - Toshkent, 2006; Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: "Fan va texnologiya", 2014. - 368 b.; Ata-Mirzaev O.B. Народонаселение Узбекистана: история и современность. - T.: 2009. - 223 с.; Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N., Iqtisodiy geografiya. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD MOLIIYA", 2013. - 212 b.; Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya: O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2011; Bo'rieva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: Tafakkur, 2011. - 159 b.; Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. - T., 2002; Soliev A.S., Bo'rieva M.R va boshqalar. Qishloq joylar demografiyasi. - T., 2005. - 140 b.; Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (Monografiya). - T.: «Fan va texnologiya», 2010. - 276 b.; Заирова Ф. Народонаселение и региональная экономика. /Социально-демографические процессы в современном Узбекистане. -T., 2009.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining №01/2-09-07-928 – “Demografiya, mehnat va gender statistikasi” bo‘limi amaliyoti izlanishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi demografik jarayonlarini ekonometrik modellashtirish asosida aholi sonini barqaror o‘shirishni ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“demografiya” va “demografik jarayon” kategoriyalarining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

demografik jarayonlarning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini ilmiy asoslash va ularning statistik manbaini aniqlash;

demografik jarayonlarni statistik tadqiq etish yo'nalishlari va ko'rsatkichlarini aniqlash;

zamonaviy demografik modellarni tadqiq qilish;

respublikada demografik jarayonlar va uning asosiy tendentsiyalarini tahlil qilish;

mintaqada demografiya sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

mintaqani demografik rivojlanishining axborot bazasini shakllantirish;

Qoraqalpog'iston respublikasida aholi soni o'zgarishiga demografik omillar ta'sirini baholash modellarini ishlab chiqish

Qoraqalpog'iston respublikasida demografik o'zgarishlarga iqtisodiy ko'rsatkichlar ta'sirini baholash modellari ishlab chiqish;

Qoraqalpog'iston respublikasida demografik ko'rsatkichlarning istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi soni va tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq demografik jarayonlar olingan.

Tadqiqot predmeti bo'lib, iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida mintaqada demografik jarayonlarni modellashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekonometrik modellashtirish, prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

demografik jarayonlarda aholi migratsiyasining ichki (rag'batlantiruvchi) hamda tashqi (institutsonal) omillari o'rtasida o'zaro to'g'ri va teskari bog'liqliklar bo'yicha korrelyatsiya matritsasi taklif qilingan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik jarayonlar o'zgarishini statistik tadqiq qilishda indikativ omillarni kompleks qo'llagan holda integral ko'rsatkichlar tizimi tarkibiga mehnatga qobiliyatli har 1000 ta aholiga to'g'ri keladigan mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta shaxslar sonini kiritish orqali demografik barqarorlik indikatorlarining aniqlik darajasini oshirish asoslangan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgan aholi sonini umumiy aholi soniga ta‘sirini baholash bo‘yicha $\ln(A_t) = 3,64 + 0,47 * \varepsilon_{t-1} + 0,59 * \ln(IF)_t$ ARDL modeli ishlab chiqilgan

Qoraqalpog‘iston Respublikasida demografik o‘zgarishlarni tavsiflovchi asosiy miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

demografik holat o‘zgarishi va rivojlanishining muhim elementlari sifatida “demografiya” va “demografik jarayon” kategoriyalarining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan;

ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, rivojlanishning tarixiy xususiyatlari, demografik vaziyat hamda mamlakat va dunyodagi siyosiy holatga bevosita bog‘liq holda hududda aholi soni dinamikasining o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillar ijtimoiy-demografik, iqtisodiy rivojlanish hamda ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog‘liq turlari bo‘yicha tasnifi ishlab chiqilgan;

mintaqada demografik siyosatni amalga oshirish maqsadlariga muvofiq tug‘ilishni uzoq muddatli istiqbolda demografik takror barpo qilish darajasini saqlash, aholi sog‘lig‘ini saqlash tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, sog‘lom turmush tarzini ta‘minlashga yo‘naltirilgan aholining tibbiy savodxonligini oshirish, ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta‘minlashga doir ustvor vazifalar aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasining statistik ma‘lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertasiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan aholi soni, uning o‘ssishi, joylashishi, demografik tarkibini tadqiq qilish, demografiya sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, demografik jarayonlarni imitasion modellashtirish, demografik jarayonlarni prognozlashtirish yo‘nalishlarida ilmiy apparatni boyitish bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati demografik jarayonlarning mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati va ularning statistik manbaini aniqlash, demografiya sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, mintaqalarni demografik rivojlanishining axborot bazasini shakllantirish, demografik jarayonlarni imitasion modellashtirish, demografik holat parametrlariga alohida omillarning ta‘sirini baholash, sohaga oid me‘yoriy hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, mintaqada demografik jarayonlarni statistik tadqiq etish yo‘nalishlari va ko‘rsatkichlarini tizimlashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalaridan “Demografiya”, “Demografik tahlil”, “Demografik jarayonlarni modellashtirish” fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi demografik jarayonlarini ekonometrik modellashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

demografik jarayonlarda aholi migratsiyasining ichki (rag‘batlantiruvchi) hamda tashqi (institutsional) omillari o‘rtasida o‘zaro to‘g‘ri va teskari bog‘liqliklar bo‘yicha korrelyatsiya matritsasi taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2025-2027-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yo‘l xarita”sini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining 2025-yil 29-sentabrdagi 01/2-09-07-928-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish aholi tabiiy harakatini baholashning individual ko‘rsatkichlari asosida demografik jarayonlar o‘zgarishining aniqlash optimalligi darajasini oshirish imkonini bergan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida demografik jarayonlar o‘zgarishini statistik tadqiq qilishda indikativ omillarni kompleks qo‘llagan holda integral ko‘rsatkichlar tizimi tarkibiga mehnatga qobiliyatli har 1000 ta aholiga to‘g‘ri keladigan mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta shaxslar sonini kiritish orqali demografik barqarorlik indikatorlarining aniqlik darajasini oshirish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2025-2027-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yo‘l xarita”sini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining 2025-yil 29-sentabrdagi 01/2-09-07-928-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish mintaqaning demografik rivojlanish ko‘rsatkichlarini bir-biri bilan taqqoslash asosida aholi o‘zgarishi jarayonlari haqida ishonchli va to‘liq axborotlarni olish imkonini bergan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgan aholi sonini umumiy aholi soniga ta‘sirini baholash bo‘yicha $\ln(A_t) = 3,64 + 0,47 * \varepsilon_{t-1} + 0,59 * \ln(IF)_t$ ARDL modeli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2025-2027-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yo‘l xarita”sini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining 2025-yil 29-sentabrdagi 01/2-09-07-928-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tartiblashtirish asosida, xususan bandlar sonini oshirish hisobiga jami aholini 0,7, tug‘ilishni 0,43, aholi tabiiy o‘shishini 0,35 foizga oshirish imkoniyati yaratilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida demografik o‘zgarishlarni tavsiflovchi asosiy miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2025-2029-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yo‘l xarita”sini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining 2025-yil 29-sentabrdagi 01/2-09-07-928-son ma‘lumotnomasi). Taklif qilingan prognoz qiymatlari mintaqada demografik o‘zgarishlarni tartibga solish hamda istiqboldagi maqsadli, uzoq va qisqa muddatga mo‘ljallangan strategiyalarni ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 9 ta va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 150 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiya ishining **“Iqtisodiyotning innovasion rivojlanishi sharoitida aholi demografik jarayonlarni ekonometrik modellashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida demografik holat o‘zgarishi va rivojlanishining muhim elementlari sifatida “demografiya” va “demografik jarayon” kategoriyalarining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilib, demografik jarayonlarning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati va ularning statistik manbai aniqlangan. Shuningdek, demografik jarayonlarni statistik tadqiq etish yo‘nalishlari va ko‘rsatkichlari tasniflangan hamda zamonaviy demografik modellar nazariy va uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o‘shir sur‘atlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Albatta, bunda mamlakat demografik rivojlanishining o‘rni katta bo‘lib, ijtimoiy manfaatlarga yo‘naltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning o‘sishi, joylashishi, demografik tarkibi kabi jihatlarini bozor munosabatlariga o‘tish davri nuqtai nazaridan o‘rganish katta ahamiyatga ega. Chunki, aholi ham asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste‘molchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Har qanday siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar demografik xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, barcha davlatlardagi jamiyat hayotiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Tug‘ilish darajasining tebranishi muayyan vaqtdan keyin ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirishda, mehnat bozorida ish bilan bandlikda, davlatning ijtimoiy sohaga xarajatlarida bevosita o‘z aksini topadi.

Shu o‘rinda, demografiya sohasini o‘rganishda, uning qanchalik o‘ziga xos rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini aytish zarur. Demografiya sohasining mazmuniga tavsif berishda “demografiya” va “demografik jarayon” kategoriyalarini tadqiq qilish hamda mazkur kategoriyalarning mohiyatini yoritish alohida ahamiyatga ega. Chunki ularning mohiyatini tadqiq etish aholini statistik o‘rganishda muhim hisoblanadi.

Demografiya – bu aholi soni, joylashishi va tarkibini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, biologik, genitik va geografik kabi omillarga asoslangan holda yuzaga keladigan qonuniyatlar, sabab va o‘zgarishlar hamda aholining takror ishlab chiqarish qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog‘liq holda o‘rganadigan fan sohasidir.

Demografik jarayon – bu avlodlarning tabiiy o‘zgarishini ta‘minlaydigan, umumiy aholi tarkibida mehnat resurslarining shakllanishiga ta‘sir qiluvchi va mamlakat, hudud va korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli xil omillariga bog‘liq bo‘lgan tug‘ilish va o‘lim hodisalari majmuidir.

Demografik jarayon insonlar hayotidagi demografik o'zgarishlar va hodisalarning ketma-ketligi, ularning avlodlari almashinuvi uchun muhim ahamiyatga ega. Asosiy demografik jarayonlar – tug'ilish, o'lim, nikoh, nikohni tugatish – ularda tegishli demografik hodisalarning ketma-ket sodir bo'lishi sababli avlodning pasayishi jarayonlari sifatida demografiyada ko'rib chiqiladi.

Demografik jarayonlar orasida to'ldirish (tug'ish, nikoh) va pensiya (o'lim, nikohni tugatish) jarayonlari ajralib turadi. Demografik jarayonlar vaqt va yoshga hamda ularning turli aholi guruhlarida sodir bo'lish xususiyatiga qarab o'rganiladi. Demografik jarayonning asosiy xususiyatlari demografik jarayonning intensivligi bo'lib, u avlod yoki populyasiyadagi demografik hodisalarning chastotasi (masalan, demografik hodisaning ehtimoli, demografik jarayonning kuchi, demografik koeffitsiyentlar) bilan o'lchanadi. Demografik jarayonning taqvim, bu haqiqiy yoki shartli avlodagi hodisalarning o'rtacha sodir bo'lish yoshini qayd etadi.

Yosh ko'rsatkichi ham muhim demografik xususiyatlardan biridir. Bu insonning tug'ilishidan hayotining u yoki bu daqiqalarigacha bo'lgan davrni belgilaydi. Yosh obyektiv xususiyat sifatida ko'rinishiga qaramay, umr ko'rish davomiyligi evolyusiyasi jarayonida inson hayotining yosh davrlari haqidagi g'oyalar o'zgardi. Inson hayotidagi yosh davrlari haqidagi zamonaviy g'oyalar 1-jadvalda jamlangan. Demografik hodisalar u yoki bu yoshda sodir bo'ladi. Ularning paydo bo'lish qonuniyati yoshga qarab yoki uning vazifasiga qarab o'zgaradi. Shuning uchun tadqiqotlarda yosh ko'rsatkichi eng muhim xususiyat sifatida ishlatiladi.

Aholi soni ma'lum bir hududda yashovchi aholining umumiy miqdori hisoblanib, keng tarqalgan umumiy miqdoriy demografik tavsiflardan biridir.

1-jadval

Yosh guruhlari tasnifi⁵

Kalendar yoshi	Inson hayotining davri
1-7 kun	yangi tug'ilgan chaqaloqlar
7 kun – 1 yil	Chaqaloqlar
1-3 yil	Erta bolalik
4-7 yosh	Birinchi bolalik
8-12 yosh (o'g'il bolalar)	Ikkinchi bolalik
8-11 yosh (qizlar)	
13-16 yosh (o'g'il bolalar)	O'smirlar
12-15 yosh (qizlar)	
17-21 yosh	Yoshlar
16-20 yosh	qizlar
22-35 yosh (erkaklar)	I yetuklik davri
21-35 yosh (ayollar)	
36-60 yosh (erkaklar)	II yetuklik davri
36-55 yosh (ayollar)	
61-74 yosh (erkaklar)	Keksa odamlar
56-74 yosh (ayollar)	
75-90 yosh	Qariyalar
90 yoshdan oshgan	Uzoq yashovchilar


⁵ https://freereferats.ru/product_info.php?products_id=75020

Demografik modellar va demografik tahlildagi insoniyat populyasiyasi sifatida aholi sonining nazariy va ma'lum bir hududdagi (yer shari, kontinent, mamlakat, region) aholining amaldagi soni bir-biridan farqlanadi.

Aholi soni tug'ilish va o'lim natijasida to'xtovsiz o'zgarib boradi, ma'lum bir hududlar uchun esa aholi migrasiyasi natijasida o'zgaradi. Shuning uchun demografik tahlilda aholi soni vaqt funksiyasi sifatida qaraladi. U ma'lum bir vaqt aholini ro'yxatdan o'tkazish vaqti uchun, yil boshi, oxiri yoki o'rtasidagi holati bo'yicha o'lchanadi va baholanadi. Ushbu vaqtning belgilanishi ayniqcha yirik mamlakatlar yoki regionlar uchun juda zarur, bunda yil boshidagi va yil o'rtasidagi aholi miqdoridagi farq 100 mingni tashkil qilsa, yirik mamlakatlar uchun esa millionlarni tashkil qiladi. Aholi soni dinamikasi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, rivojlanishning tarixiy xususiyatlari, demografik vaziyat hamda mamlakat va dunyodagi siyosiy holatga bevosita bog'liq bo'ladi (1.1-rasm). Bunda turli xil omillar aholi soning o'zgarishiga ta'sir qiladi. Omillar va shart-sharoitlar aholining reproduktiv xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ehtiyojlar tizimini va psixologik munosabatlarni oldindan belgilab beradi.

Bugungi kunda aholi tadqiqot obyekti sifatida oddiygina bo'lib odamlarning statistik to'plami sifatida emas, balki murakkab, doimiy harakat bo'lgan va o'z-o'zini rivojlantirishda bo'lgan murakkab tizim sifatida qabul qilinadi. Ushbu tizimning harakati xilma-xil va o'zaro bog'langan. Demografik dinamikada aholi harakatining uch turi ajratiladi: tabiiy, migrasion va ijtimoiy.

Aholi statistik tadqiqot obyekti sifatida turli yo'llar bilan o'rganilishi mumkin.



1-rasm. Aholi sonining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar⁶

Aholining har bir aniq statistik kuzatuvda belgilangan vazifalarni hal qilish ma'lum statistik ko'rsatkichlardan foydalanish bilan bog'liq. Tadqiqotimizning maqsad va vazifalariga muvofiq, demografik vaziyatni baholash uchun aholi soni va uning dinamikasini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalanamiz; aholining shahar va qishloqlarga taqsimlanishi; aholining jinsi, yoshi, millati, ijtimoiy xususiyatlari va boshqalar bo'yicha tarkibi va tuzilishi; aholining tabiiy harakati (tug'ilish, o'lim darajasi, aholining tabiiy ko'payishi, nikohlar va ajrimlar); aholining umr ko'rish davomiyligi va takror ishlab chiqarish; aholi migrasiyasi.

Aholining alohida guruhlarining reproduktiv xususiyatlari hududiy sharoitda tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish ko'rsatkichlarini, shuningdek, ular bilan chambarchas bog'liq bo'lgan nikohlar va ajralishlar ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan tabiiy harakat ko'rsatkichlari bilan baholanadi. Shunga ko'ra, muallif tomonidan, aholi statistikasida qo'llaniladigan hayotiylik va avlodlar almashinuvini baholash usuli aholining tabiiy harakatini tug'ilish darajasi, o'lim darajasi va aholining takror barpo etilishi (ko'payishi) bilan bog'liq individual ko'rsatkichlarni alohida tasnifiy belgilari bo'yicha guruhlash hamda demografik koeffitsiyentlarni standartlashtirish asosida takomillashtirildi.

Aholi statistikasida qo'llaniladigan hayotiylik va avlodlar almashinuvi ko'rsatkichlari tizimi umumlashtirildi:

1. Tug'ilish darajasini baholash (tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti, yoshga xos tug'ilish darajasi, maxsus tug'ilish koeffitsiyenti, tug'ilishning umumiy darajasi, tug'ilishning boshqa xususiy ko'rsatkichlari guruhi quyidagi xususiyatlar bilan ajratiladi: onaning yoshi, oilaviy holati, ma'lumoti, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash joyi (shahar, qishloq) va boshqalar, standartlashtirilgan tug'ilish koeffitsiyentlari);

2. O'lim darajasini baholash (umumiy o'lim koeffitsiyenti, yoshga bog'liq o'lim koeffitsiyenti, boshqa xususiy o'lim ko'rsatkichlari, chaqaloqlar o'limi darajasi, standartlashtirilgan o'lim ko'rsatkichlari, o'rtacha umr ko'rish, kechiktirilgan o'rtacha hayot davomiyligi);

3. Aholining takror barpo etilishi (ko'payishi) (aholini takror barpo etilishining brutto-koeffitsiyenti, aholini takror barpo etilishining – netto koeffitsiyenti).

Aholining tabiiy harakatining individual ko'rsatkichlarini, alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Tug'ilish tendensiyalarini tahlil qilishda shartli avlod uchun ko'rib chiqiladigan tug'ilish koeffitsiyentlaridan tashqari, kogorta tug'ilish koeffitsiyentlari ham qo'llaniladi, ular aslida ehtimollikdir va demografik hodisalarning yildan-yilga harakatini aks ettiradi yoki shakllangan haqiqiy kogortada. tug'ilgan yili (avlod) yoki nikoh yili bo'yicha (nikoh kogorti). Haqiqiy avlodlarga (nikoh kogortalariga) kelsak, bir qator boshqa ko'rsatkichlar hisoblab chiqilgan, ammo ularning aksariyati sof demografik xususiyatga ega.

O'limni statistik o'rganishda umumiy va maxsus qisman koeffitsiyentlar ham hisoblab chiqiladi, shu jumladan erkaklar va ayollar uchun, shahar va qishloq aholisi yondashuvida, turli xil turmush sharoitlari, shuningdek, kasalliklardan o'lim va boshqalar. O'lim ma'lumotlari o'tgan demografik tendensiyalarni tahlil qilish va

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

demografik prognozlarni ishlab chiqish uchun zarur. O‘limning shaxsiy ko‘rsatkichlari orasida eng muhimi yosh o‘lim darajasidir, chunki yosh o‘limning biologik omili sifatida muhim rol o‘ynaydi. Yoshga oid o‘lim ko‘rsatkichlari orasida bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limini tavsiflovchi chaqaloqlar o‘limi ko‘rsatkichi alohida o‘rin egallaydi. Umumiy o‘lim darajasi ikki omilga bog‘liq: yoshga bog‘liq o‘lim ko‘rsatkichlarining kattaligi va aholining umumiy sonidagi yosh guruhlari ulushi. Vaqt o‘tishi bilan, geografik yoki aholining alohida guruhlari bo‘yicha taqqoslaganda, ularning umumiy o‘lim ko‘rsatkichlarining qiymatiga ta‘sirini aniqlashga, xususan, o‘lim ko‘rsatkichlarini indekslash usuli va standartlashtirish usuli imkon beradi.

Aholining takror barpo bo‘lishi uzoq muddatli tendensiyalarini aniqlash kogort yondashuviga asoslangan (ya‘ni, bir yil yoki boshqa davrga emas, balki haqiqiy yoki taxminiy avlodga bog‘liq) va ularning tuzilishiga bog‘liq bo‘lmagan ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. aholi, birinchi navbatda, jinsi va yoshi bo‘yicha, ya‘ni. aslida davriy emas, balki kogortadir.

Zamonaviy demografik prognozlarni ishlab chiqishda ko‘pincha quyidagi to‘rtta guruh usullari qo‘llaniladi: 1. Ekstrapolyasiya usullari; 2. Ko‘p omilli dinamik modellarni ishlab chiqishning iqtisodiy-matematik usullari; 3. Yosh va kogortlarni o‘zgartirish usullari; 4. Ekspert baholash usullari.

Demografik prognozlashda qo‘llaniladigan usullar obyektiv tavsifi va xususiyati, aholi o‘zgarishini muayyan darajada nazorat qilish shart-sharoitlari, aholining yosh va kogortalarni o‘zgartirish hamda prognozlash obyekti to‘g‘risida statistik ma‘lumotlar yetarli bo‘lmagan hollarda va o‘rganilayotgan jarayonga yangi omillar ta‘sir qila boshlaganda qo‘llaniladigan ekspert baholashga ko‘ra guruhlandi.

Dissertasiya ishining **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida demografik jarayonlarining xususiyatlari va asosiy tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikada demografik jarayonlar va uning asosiy tendensiyalari tahlil qilingan va mintaqada demografiya sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari aniqlangan. Shuningdek, mintaqani demografik rivojlanishining axborot bazasini shakllantirish mexanizmi tadqiq qilingan.

Hozirgi kunda respublikamizda demografik rivojlanishining o‘rni katta bo‘lib, ijtimoiy manfaatlarga yo‘naltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning o‘sishi, joylashishi, demografik tarkibi kabi jihatlarni bozor munosabatlari rivojlanishi nuqtai nazaridan o‘rganish katta ahamiyatga ega. Chunki, aholi ham asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste‘molchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Har qanday siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar demografik xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, barcha davlatlardagi jamiyat hayotiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Tug‘ilish darajasining tebranishi muayyan vaqtdan keyin ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirishda, mehnat bozorida ish bilan bandlikda, davlatning ijtimoiy sohaga xarajatlarida bevosita o‘z aksini topadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘ziga xos demografik vaziyat vujudga kelgan va u aholi sonining progressiv o‘sishi, aholining yosh tarkibida mehnatga layoqatli yoshdan kichik bo‘lganlar va keksa yoshdagilar ulushining ortishi, mehnatga layoqatli yoshgacha bo‘lgan aholi sonining kamayishi, shu bilan bir vaqtda o‘rta yoshdagi aholi sonining ko‘payishi, urbanizasiya jarayoni ortayotganida namoyon bo‘lmoqda. 2000-2024 yillar davomida mintaqada doimiy aholi soni 321,8 ming kishiga yoki 19,1 % ga.

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, mintaqaning shahar va qishloq joylarida aholi soni bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, 2010-yilda aholining 49,8 %i shaharda, qolgan 50,2 %i qishloq joylarda, 2024-yilda aholining 48,8 %i shaharda, qolgan 51,2 %i qishloq joylarda istiqomat qilgan.

Qoralpog'iston Respublikasida tahlil qilinayotgan yillar mobaynida mehnatga layoqatli yoshgdagi doimiy aholi soni 114,0 %ga o'sgan. Ularning jami aholi sonidagi ulushiga nazar solsak, 2010-yilda 61,3 %ni, 2024-yilda 58,6 %ni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, mintaqada jami aholi tarkibida mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lganlar ulushi oshayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, 2010-2024-yillar oralig'ida tug'ilganlar soni 9,7 %ga, vafot etganlar soni 22,1 %ga oshgan. Aholining tabiiy ko'payishi 2010-yilda 29600 kishini, 2024-yilda 31460 kishidan iborat bo'lgan. Bu ko'rsatkich 2010-2024-yillarda 6,3%ga oshgan. Tahlil qilinayotgan yillarda tuzilgan nikohlar soni 74% ga qisqargan bo'lsa, nikohdan ajrashganlar soni 2,02 martaga oshgan. Bu holat oilaviy munosabatlarda ijtimoiy ziddiyatlarning ortayotganligini ko'rsatmoqda. Aholi migrasiyasi saldosini 58,9 %ga qisqargan (2-jadval).

Aholining jins tarkibi – aholining erkak va ayollarga taqsimlanishidir. Qoralpog'iston Respublikasi aholisi tarkibida erkaklar salmog'ining yuqoriligi ikkinchi jahon urushigacha saqlanib turgan.

2-jadval


Qoralpog'iston Respublikasida asosiy demografik ko'rsatkichlar⁷

Ko'rsatkichlar	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024y.	2010-2024 y.y.da o'sish (%)
Doimiy aholi soni, ming kishi	1680,9	1791,1	1923,7	1948,5	1976,2	2002,7	2029,7	120,8
Shu jumladan:								
shahar	837,0	883,2	942,0	954,2	967,3	978,2	990	118,3
qishloq	843,9	907,9	981,7	994,3	1008,9	1024,5	1039,7	123,2
Mehnatga layoqatli yoshgdagi doimiy aholi soni, ming kishi	1030,1	1077,8	1147,9	1153,7	1163,8	1174,2	1189,8	115,6
Mehnatga layoqatli yoshgdagi doimiy aholi sonini jami aholi sonidagi ulushi, %	61,3	60,9	59,7	59,2	58,9	58,6	58,6	-
Tug'ilganlar soni,	37942	41345	39286	40272	42835	44021	41641	109,7

⁷ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

kishi									
O'lganlar soni, kishi	8342	8094	9164	8756	9585	10092	10184	122,1	
shu jumladan: besh yoshgacha o'lgan bolalar	632	640	571	540	576	680	704	111,4	
Aholining tabiiy ko'payishi, kishi	29600	33251	30122	31516	33250	33929	31460	106,3	
Tuzilgan nikohlar soni, kishi	17796	13791	11561	15746	14857	13565	13166	74	
Nikohdan ajrashganlar soni, kishi	870	1134	1028	1467	2067	1933	1755	2,02 marta	
Aholi migratsiyasi saldosu, kishi	12696	5331	4739	6762	5516	7476	4414	35	

Urush demografik vaziyatga keskin o'zgartirish kiritgan. 1959 yilda sobiq Ittifoqda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish har 1000 aholi tarkibidagi erkaklar va ayollar nisbati 480:520 ligini ko'rsatdi. Boshqacha aytganda, O'zbekiston aholisining tarkibida ayollar erkaklarga nisbatan 4,0 foiz ko'p bo'lgan⁸. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda har 1000 ta erkakga 997 ta ayol to'g'ri keladi. Qoralpog'iston Respublikasida 2010-yilda jami aholi tarkibida ayollar ulushi, 50,03 %ni, erkaklar 49,97 %ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2010-yilda ayollar uchun 49,8 %ni, 2024-yilda 50,2 %ni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, erkaklarning ulushi ayollarga nisbatan yuqoriroq hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Qoralpog'iston Respublikasida domiy aholi umumiy sonida ayollar va erkaklarning nisbati⁹ (%)

⁸ О.Б. Ата-Мирзаев. Народонаселение Узбекистана: история и современность. –Т.: Ижтимоий фикр, 2009. –С. 143-144.

⁹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Hozirgi paytda demografik siyosat deganda hozirgi davr va uzoq muddatli istiqbol uchun aholi takror barpo bo'lishi va dinamikasi sohasida ma'lum bir sifat va miqdorga yetishishni nazarda tutish yordamida konseptual ravishda birlashgan vositalarni, fikrlar birligini davlat miqyosida umumiy qabul qilingan tizimi tushuniladi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, demografik siyosatni o'tkazish, qator shartlarga rioya qilishni talab etadi. Bulardan uchtasini bir biridan ajratish mumkin emas. Birinchidan, aynan siyosatni maqsadini tasvirlovchi vazifasini, vaqtini belgilovchi konsepsiyani mavjudligidir; ikkinchidan, qabul qilingan konsepsiya doirasida siyosatni barcha tadbirlarini moliyalashtirishga sarflanishi zarur bo'lgan resurslar va nihoyat, uchinchi o'tkazilayotgan siyosatni asosiy strategik fikrlarini qo'llovchi, o'zaro mutanosib fikrlar.

Aholining tabiiy o'sish sur'ati ko'rsatuvchisi tug'ilish bilan o'limning umumiy ko'rsatuvchisi o'rtasidagi farqni anglatadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2010-2024-yillarda tug'ilganlar soni 9,7 %ga, o'lganlar soni 22,1 %ga, aholining tabiiy ko'payishi 6,3 %ga oshgan. Bundan ko'rinadiki, aholining tabiiy ko'payishi muntazam oshish tendensiyasiga ega. Statistik ma'lumotlar tahlili mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholini tabiiy o'sish sur'ati ko'rsatuvchisiga o'sish tendensiyasi xos bo'lganligini ko'rsatadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2010-2024-yillarda tug'ilishning umumiy ko'rsatuvchisi -2,5 promillegacha kamaygan bo'lsa, o'limning umumiy ko'rsatuvchisi 0,5 promillegacha oshganligini ko'rsatmoqda (3-jadval).

Aholi takror barpo bo'lishining inqirozi, aholi o'sish sur'atlarini yetarli darajada emasligini, individual tarzda xuddi butun aholi darajasida baholab bo'lmaydi. Joriy demografik trend rivojlanishini va uni oqibatlarini ijtimoiy iqtisodiy maqsadlarini universal baholash – bu davlat institutlari vazifasidir. Har xil turdagi tashviqot tadbirlari davlat va aholi orasida kommunikasiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

3-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida to'g'rilash, o'lim va aholining tabiiy ko'payishi¹⁰

Yillar	Tug'ilganlar soni, kishi	O'lganlar soni, kishi	Aholining tabiiy ko'payishi, kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	
				tug'ilganlar	o'lganlar
2010	37942	8342	29600	23,3	4,6
2015	41345	8094	33251	23,3	4,6
2019	41137	8461	32676	21,8	4,5
2020	39286	9164	30122	20,6	4,8
2021	40272	8756	31516	20,8	4,5
2022	42835	9585	33250	21,8	4,9
2023	44021	10092	33929	22,1	5,1
2024	41641	10184	31457	20,8	5,1

¹⁰ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Aholi umr ko‘rishi davomiyligi darajasining indeksi – bu jahon mamlakatlarida kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish ko‘rsatkichi bo‘lib, u yoki bu davlatning ijtimoiy-demografik rivojlanishining eng muhim mezonlaridan biridir. Mazkur ma’lumotlar milliy institutlar va xalqaro tashkilotlardan olinib, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha departamentining Aholishunoslik bo‘limida jamlanadi va qayta ishlanadi. Kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi erkaklar va ayollarga alohida-alohida hisoblab chiqilishi mumkin.

4-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi¹¹ (yilda, yosh)


Hududlar	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Respublika bo‘yicha	70,4	72,6	72,5	73,5	72,9	72,7	73
ayollar	72,3	74,9	74,9	75,6	75,1	75,0	75,1
erkaklar	68,5	70,4	70,3	71,4	70,6	70,5	70,9

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 2010-yilda 70,4 yilni tashkil etgan holda, bu ko‘rsatkich yillar mobaynida muntazam o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda va 2024-yilda 73 yilni tashkil qilgan. Shundan, 2024-yilda ayollarning umr ko‘rish davomiyligi 75,1 yilni, erkaklarda 70,9 yilni tashkil qilgan (4-jadval).

Mamlakatda kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligining o‘shishi ijtimoiy tizimlar rivojlanganligi darajasini belgilovchi asosiy mezondir.

Xususan, respublikada ijtimoiy siyosat sohasiga e’tibor qaratilishi natijasida aholining umr ko‘rish davomiyligi oshib borish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

¹¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.



3-rasm. Mintaqa aholisi shakllanishi ko'rsatkichlari tizimi¹²

Aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning muhim manbai – tanlab olish usulidan foydalanishga asoslangan maxsus demografik tadqiqotlardir. Ushbu tadqiqotlarning maqsadi ko'pincha demografik hodisalarning chuqur va batafsil tavsiflarini olishdan

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

iborat bo‘lib, bunday ma‘lumotlarni joriy buxgalteriya hisobi yoki aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlaridan yig‘ishning murakkabligi tufayli olish mumkin emas. Namunaviy so‘rovlar qat‘iy maqsadli bo‘lib, noaniq savolga yoki mazmuni o‘xshash savollar guruhiga javob beradi. Ular turli hududiy darajalarda amalga oshiriladi: xalqaro, davlat (bir mamlakat ichida), mintaqa, mahalliy. Mamlakatimizda namunaviy so‘rovlar respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish “Ijtimoiy markazi” va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Aholini ro‘yxatga olish bilan solishtirganda demografik jarayonlarni tanlama tadqiqotlari arzonroq bo‘lishiga qaramay, ularni o‘tkazish chastotasi ham mintaqada, ham butun mamlakatda dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlaridan orqada qolmoqda.

Ro‘yxatga olingan barcha manbalar, ularning har biri o‘zining kamchiliklari va afzalliklariga ega bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi va faqat ulardan foydalanish birligida mintaqa aholisida sodir bo‘layotgan jarayonlarning ishonchli va to‘liq tasavvurini olish kerak. Bu mintaqaning demografik rivojlanish ko‘rsatkichlarini bir-birini to‘ldirish, muvofiqlashtirish va taqqoslash muammolari bilan bog‘liq.

Demografik vaziyatni tahlil qilish uchun mintaqadagi demografik jarayonlar haqidagi ma‘lumotlar yetarli emas. Ular ushbu ma‘lumotlardan har tomonlama foydalanadigan ko‘rsatkichlar tizimiga birlashtirilishi kerak. Unda aholi soni, tarkibi va taqsimoti, aholining tabiiy harakati, migrasiya (bu jarayonlarning hozirgi holati va dinamikasi) ko‘rsatkichlari, aholi rivojlanishining prognoz baholari bo‘lishi kerak. Mintaqaviy darajada demografik rivojlanish holatini baholash uchun 3-rasmda keltirilgan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish mumkin.

Dissertasiya ishining **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida demografik o‘zgarishlarga omillar ta‘sirini baholash va istiqboldagi prognoz qiymatlarini ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida mintaqada demografik jarayonlarni imitatsion modellashtirish usullari tadqiq qilinib, demografik holat parametrlariga alohida omillarning ta‘sirini baholash amalga oshirilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida demografik jarayonlarni prognozlashtirish bo‘yicha ilmiy asoslagan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Sof o‘shish va sof o‘shish koeffitsiyentlarining aholi soniga ta‘sirini baholash bo‘yicha amalga oshirilgan regression tahlil natijalari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi. O‘lchov birliklari farqini hisobga olgan holda aholini tabiiy o‘shishi hamda tabiiy o‘shish koeffitsiyentini lagorifmlagan holda multiplikativ model ishlab chiqildi.

$$A = SO^{0,97} * SOK^{-0,9} \quad (1)$$

Ushbu model natijalarini quyidagi jadvalda keltirib o‘tilgan bo‘lib ular barcha mezonlari talabga javob beradi (5-jadval). Styudent mezoni, determinatsiya koeffitsiyenti hamda Fisher mezoni natijalari talab darajasida. Durbin-Uatson mezoni natijalari (DW=1,25) qarorsizlik oralig‘iga to‘g‘ri kelgan. MAPE (Mean absolute percentage error) ko‘rsatkichi natijalari ham keltirib o‘tilgan bo‘lib, uning qiymati 0,09 tashkil qilishi modelning ishonchliligini deyarli 100 foizga tengligini asoslaydi.

5-jadval

Qoraqalpog‘iston respublikasida aholi sonini tabiiy o‘shishi va aholini tabiiy o‘shish koeffitsiyentlarining aholi soniga ta‘sirini baholash bo‘yicha multiplikativ model natijalari¹³

Model 7: OLS, using observations 2010-2024 (T = 15)

Dependent variable: l_A

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
l_SO	0.972790	0.0138796	70.09	<0.0001	***
l_SOK	-0.899969	0.0505769	-17.79	<0.0001	***
Mean dependent var	7.511526		S.D. dependent var	0.063106	
Sum squared resid	0.001574		S.E. of regression	0.011003	
Uncentered R-squared	0.999998		Centered R-squared	0.971769	
F(2, 13)	3495431		P-value(F)	5.64e-38	
Log-likelihood	47.43260		Akaike criterion	-90.86520	
